

## JISMONIY MADANIYAT TARIXI FANI TARAQQIYOTINING USTUVOR YO‘NALISHLARI

**B.B. Jahongirov**

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport  
Universiteti dotsenti

**M.G‘ Xoldorova**

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport  
2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sportni yanada rivojlantirishga asos bo‘luvchi eng muhim xujjatlar, O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport milliy modelining o‘ziga xos xususiyatlari - uning ma’naviy mazmunini mantig‘ini o‘zbek xalqiga tegishli bo‘lgan o‘ziga xos mentaliteti, xalqning ilmga bo‘lgan hurmati, yuqori ahloqi, xalqning jismoniy va ma’naviy rivojlanishga hamohangligi, himmati, mehr-oqibati, mehmondo‘stligi, kirishimlilik va hamdo‘stligi va ma’naviy mazmuni, mamlakatning ma’naviy uyg‘onish kontseptsiyasiga muvofiq kelish haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, respublika, jismoniy madaniyat, sport, milliy model, ma’naviy mazmun, xalq, mentalitet, ilm, mehr-oqibat, hamdo‘stlik, kontseptsiya.

**Abstract:** This article discusses the most important documents that are the basis for the further development of physical culture and sports in Uzbekistan, the specific features of the national model of physical education and sports in Uzbekistan - the logic of its spiritual content, the mentality belonging to the Uzbek people, people’s respect for science, high morality, consistency of physical and the spiritual development of people, purposefulness, kindness, hospitality, enterprise and camaraderie, as well as

the spiritual content of the country information about the arrival in accordance with the concept of spiritual awakening is given.

**Key words:** Uzbekistan, republic, physical culture, sport, national model, spiritual content, people, mentality, science, kindness, commonwealth, concept.

O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sportni yanada rivojlantirishga asos bo‘luvchi eng muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning yaqqol namunasi O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni (1992 yil 14 yanvar) barcha aholining sog‘ligini mustahkamlash, ularning jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratib berishni kafillikka oladi. Bu Qonun 2000 yil 26 mayda va 2015 yil 4 sentyabr yangi tahrirda qabul qilindi. [1]

Qonunda: O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy holatidan qat’i nazar, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish, jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalarini tuzish, jismoniy tarbiya-sport harakatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga egadirlar deb aloxida takidlangan.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- insonparvarlik;
- demokratizm;
- fuqarolar jismoniy tarbiyasining uzluksizligi va davomiyligi;
- jismoniy tarbiya va sport tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi.[2]

O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport milliy modelining o‘ziga xos xususiyatlari - uning ma’naviy mazmunini mantig‘ini o‘zbek xalqiga tegishli bo‘lgan o‘ziga xos mentaliteti, xalqning ilmga bo‘lgan xurmati, yuqori axloqi, xalqning jismoniy va ma’naviy rivojlanishga hamohangligi, himmati, mexr-oqibati, mexmondo‘stligi, kirishimlilik va hamdo‘stligi tashkil etadi. O‘zbekistonda jismoniy

tarbiya va sport modelining ma'naviy mazmuni, mamlakatning ma'naviy uyg'onish kontsepsiyasiga muvofiq keladi.[3]

Hamdo'stlik davlatlari ichida mamlakatimizda birinchi bo'lib, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun (1992, 2000, 2015 yil) qabul qilindi, "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (1997), "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi (2002), voleybol, futbol, kurash, tennis, jismoniy tarbiya va boshqa sport turlarini rivojlantirish haqida Prezident Farmonlari va Hukumat Qarorlari qabul qilindi. [4]

Mamlakatimizda barcha sohalarni tubdan yangilash, rivojlantirish izlanishlar jarayoni faollik bilan amalga oshirib borilmoqda, bu yo'lda jismoniy tarbiya va sport ilmiga katta ahamiyat berilmoqda. Bejiz emaski, hukumatimiz qarorlarida jismoniy tarbiya va sportni aholining keng qatlamlari o'rtasida yanada keng yoyish umumdavlat ishi, barcha joylarda maktabgacha ta'lim kasb hunar va akademik lisey oliy o'quv yurtlari va mehnat jamoalari burchi ekanligi ta'kidlangan. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, yosh avlod salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, ta'lim jarayonini barcha qismlarida ta'lim yunalishida sog'lomlashtirish dasturlarni ta'minlab borilishiga katta etibor qaratilmoqda. SHu bois, ta'lim muassasalarida asosan bolalik va o'smirlilik davridan jismoniy tarbiya va sportga poydevor qo'yilgan. [5]

Jismoniy tarbiya va sport orqali sog'lom insonni shakllantirish butun bir jamiyatning vazifasi bo'lmog'i kerak. Xar bir inson, oila, ota -ona jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni odat darajasiga chiqarishi bilan birga, qadriyat sifatida e'zozlashi jamiyatning uzluksiz ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishiga olib keladi. "Muxtasar aytganda, sport mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim vositasi bo'lib kelmoqda va kelajakda ham shunday bo'lib qolishi mukarrar. CHunki - sport sog'lom avlod, sog'lom kelajak degani. Binobarin, faqat sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi".[6]

Sogʻlom turmush tarzini taʼminlash va sport bilan hamnafaslik qilish ularning jismoniy holatiga xamda salomatligiga ijobiy taʼsirini koʻrsatmoqda. SHuni taʼkidlash lozimki, Respublikamizda aynan bolalar sportini rivojlantirish davlatimiz raxbari va huqumatimiz tomonidan alohida eʼtibor qaratilgan boʻlib, bu borada qonun, farmon va qarorlar ijrosini taʼminlash yuzasidan xam keng koʻlamli ishlar olib borilmoqda. [7]

Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha tayyorlanadigan oʻqituvchi-murabbiyning modeli «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga muvofiq taʼlim yoʻnalishiga moʻljallangan DTS va namunaviy dastur talablari bilan belgilanadi. Jahon xalqlarining madaniyati tarixida jismoniy madaniyat va sport salmoqli oʻrinlardan birini egallaydi. Oliy oʻquv yurtlarida jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish ilmiy pedagogika fani sifatida oʻrganiladi. U yosh avlodni maʼnaviy barkamollik ruhida tarbiyalashda omil hisoblanadi. [8]

“Jismoniy madaniyat tarixi” - talabalarda jahon xalqlarining jismoniy madaniyati tarixini oʻrganishga qaratilgan boʻlib, talabalarga jismoniy madaniyatni jamiyatda tutgan oʻrni haqida aniq tassavurlarni hosil qilish bilan turli elatlarning jismoniy madaniyati toʻgʻrisidagi bilimlarni oʻrganadilar.[9]

Xulosa qilib aytganda, Jismoniy madaniyat tarixi oʻquv fani sifatida barcha taʼlim muassasalari oʻquv rejasiga kiritilgan. SHu bilan bir qatorda, ayni kunda jismoniy tarbiya va sport boʻyicha isteʼdodli sport zahiralari va yuqori malakali, raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash hamda ommaviy kengaytirish, mashgʻulot va musobaqalarni ilmiy asosda tashkil qilish zaruriyati yuksak kasbiy-pedagogik salohiyatga ega mutaxassis kadrlar etishtirish muhimligiga eʼtibor qaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)**

- 1.2015 yil 5 sentabrdagi Oʻzbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport” toʻgi Qonuni. Xalq soʻzi gazetasi 2015 yil 5 sentabr 174-soni
- 2.Oʻzbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari toʻplami,2005,37-38-son, 27-modda

3. Jahongirov B.B. O‘zbekistonning hindiston bilan ilmiy - texnikaviy aloqalari. Academic research in educational sciences. Issn 2181-1385 volume 3, issue 5 may, 2022./05.-B.1057
4. Jahongirov B.B. O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan ilmi-texnikaviy aloqalari. O‘tmishga nazar jurnali. 2021.2-son.4- jild.-B.17
5. Jahongirov B.B. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan ilm-fan sohasidagi hamkorlik aloqalari. Academic research in educational science. Volume 2 | special issue 2 | 2021.02; -B. 988
6. I.A. Karimov. Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch.2008 y.
7. Normurodov A.N. Jismoniy tarbiya. O‘quv qo‘llanma.-T.2011yil.-B.10
8. Jahongirov B.B. O‘zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan ilmiy - texnikaviy aloqalari. Academic research in educational sciences, 2021.05.volume.2. Issue.5.-B.1018.
9. Jahongirov B.B. Международные связи Узбекистана в области науки. International scientific and practical conference. The time of scientific progress, Warsaw, Polsha, 05.11.2022. Session1, Part 3. – C.19.

